

**BADIIY ADABIYOTINING LEKSIK MASALALARI; I.YUSUPOV  
ASARLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA**

**Atashova F.D.,**

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi*  
[atashovaferuza@gmail.com](mailto:atashovaferuza@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14270700>

*Annotatsiya. Ushbu tadqiqot badiiy adabiyot namunalarini tarjima qilishda til va stil o'zgachaliklarini saqlab qolishda leksika muammolar Ibroyim Yusupov ijodi misolida tahlil qiladi. Har bir shoirning o'ziga xos yozish uslubi bo'lgani kabi, Ibroyim Yusupovning ham ijodida o'ziga xos takrorlanmas badiiy stilni ko'rish mumkin. Uning asarlaridagi asosiy o'zgachalik asar tilining nihoyatda sodda va muhtasar ekanligidir. Shuning bilan birga shoir asarlarida qoraqalpoq kaloritini ifodalovchi xalqona so'zlar, xalqning urf-odati, an'analari va mentalitetiga xos bo'lgan ayrim iboralar ham mavjudki, bular o'quvchiga bevosita asar mazmun va mohiyatini chuqurroq his qilishga imkon beradi, obrazlar va qahramonlarga samimiylik va realistik ohang bag'ishlaydi. Xususan, shoirning "To'maris" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. Poema o'quvchini nafaqat tarixiy voqealar bilan tanishtiradi, balki milliy g'urur, ozodlik va jasorat tuyg'ularini uyg'otadi.*

*Kalit so'zlar: stil, badiiylik, leksik, badiiy tarjimashunoslik, "To'maris" poemasi, madaniyat, qoraqalpoq tili, leksik asos.*

Yozuvchining ayni shu yozish stili uning asarlarini tarjima qilishda bir qancha leksik masalalarni keltirib chuqarishi shubhasiz. Boisi, tarjima orqali o'zga til vakiliga shoir ijodini yetkazish katta bilim, salohiyat va adib ijod stili chuqur tushunish ko'nikmalarini talab qiladi.

X asrning boshida ona tilidagi lug'at boyliklaridan puxta foydalana turib, qoraqalpoq madaniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qoraqalpoq adabiy tilining ijod vazifasi sifatida Ibroyim Yusupovni qayd etib o'tmoqchimiz. Bunda uning poeziyasi bilan bir qatorda nasriy asarlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibroyim Yusupov asarlarining har biri o'ziga xos go'zallikka, til xususiyatlariga ega. Iqtidor bilan yozilgan har bir asarning o'ziga xos "siri" bo'ladi. .V.Vinogradov aytib o'tganidek: "Bir ijodkorning asarlarining o'zlari ham stil o'zgachaliklari bilan bir-biridan farqli yoki bir-biriga o'xshash bo'ladi". Demak yozuvchining stili uning asarlaridagi ko'plab "sir"lardan tashkil topgan bo'ladi. Yozuvchining tili, stili tadqiq qilinganda, uning asarlari tarjima qilinganda, shu tushuncha, manba diqqat markazida bo'lishi kerak. O'zining she'riy stili asosini Ibroyim Yusupov shunday belgilaydi: "She'riyatning eng asosiy o'zgachaligi uning qisqa, lo'nda va muhtasar bo'lishidir".

Ibroyim Yusupov prozasining stili, tili quyidagicha muhim xususiyatlarga ega: u aniq, lo'nda, ixcham, oz so'z bilan teran o'y-fikrlar bayon qilinadi: uning leksik asosi - xalqona so'zlarni mohirlik bilan qo'llash orqali shoir ayni shu so'zlarni ajoyib go'zallik darajasiga ko'tardi; yozuvchi qanday bir leksik qatlam bilan cheklanib

qolmaydi; uning til diapozoni keng va boy; yozuvchining stilida shartli sun'iy badiiylik xususiyati yo'q; epitetlar kam, metaforalarga duch kelinmaydi; har bir nasriy asarlaridagi gap tuzilishi oddiy, asosan sodda gaplar qo'llanilgan; gaplardagi birlashtiruvchi vazifani ot va fe'l turkumidagi so'zlar bajaradi.

Albatta, bu ajoyib badiiylik, til, stil mahorati buyuk shoirning g'oyat cheksiz iste'dodi natijasi ekanligi shubhasiz. Biroq buning barchasida tug'ma talant bilan bir qatorda mehnatsevarlik, chuqur izlanuvchanlikning ham namunasi bor.

Shoirning so'zlarni to'g'ri tartibda mahorat bilan tanlay olishi va ularni qo'llay olishi tarjimada badiiylikni ta'minlay oladi. Shuning uchun ham badiiy tarjimashunoslikda asl adabiyot muallifining so'z qo'llash usullarini chuqur tushunish bilan birgalikda leksik boyligidan ham to'g'ri foydalana bilish - mohirlikning bosh belgisi bo'lib sanaladi. Tarjimon so'zlarning duch kelganini ola olmaydi, chunki asl nusxada borlarini namoyon etadi. Biz "so'zlarni tanlab olish" deganda asl nusxadagi har bir so'zni uning butun g'oyasiga, mazmuniga tilni qo'llash stiliga bog'lay turib, shundan keyingina unga adekvat moslikni tarjimonning so'z boyligidan topishini, tanlab olishini tushunamiz.

Ibroyim Yusupov asarlaridagi "To'maris" peomasi mazmun va bayon etish mahorati bo'yicha badiiylikning yorqin namunasidir.

Asarning asosiy mavzusi — Vatan, xalq va ozodlik uchun kurashdir. To'maris obrazi orqali Ibroyim Yusupov xalqning mustaqillik va erkinlik uchun bo'lgan intilishlarini ulug'laydi. To'maris nafaqat o'z xalqining onasi sifatida, balki jasorat va adolat timsoli sifatida tasvirlanadi. Uning Kir bilan bo'lgan kurashi xalqparvarlik va intiqomdan tashqari, adolat va ezgulikni himoya qilish g'oyasini ham ko'rsatadi. To'marisning jasorati va matonati ko'pincha tabiat unsurlari bilan o'xshatiladi. Uning kuchi ba'zan quyosh, daryo yoki tog' kabi qudratli kuchlar bilan taqqoslanadi, bu esa obrazning yanada qahramonlarcha va mardonavor tus olishiga xizmat qiladi.

*Күн келбетли саҳра қизи-The queen and the Massagets,*

*Тумарис баслады сөзин- Looked at the sun-rise*

Shuningdek, asarda geografik joy nomlarining qo'llanilishi o'quvchiga badiiy-estetik zavq beribgina qolmay, asar mazmun va mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi:

*Бактр, мидан, парфи, дербик,*

*Ҳэммеси де өжет болган.*

*Бирақ жети жаҳан дерлик*

*Бугин маган қуллық қылқан.*

*Being full of strength and power  
I always won the rebellious,  
Miydians, Parfians, Baktrees and Derbiks,  
Why do you stand against -me?-I think*

Poemada shoir talmeh san'atidan ham mahorat bilan foydalanish orqali Qobil va Nobilga ishora qiladi. Bu esa o'z navbatida shoirga o'z fikrini muhtasar hikoya qilish imkonini yaratgan.

*Абыл қашса, Қабыл қуўып,  
Адамды адам өлтиреди,  
Адамга адам сыртпақ болып,  
Адамды адам қыйнап атар.*

*An example:Kain killed Avel  
As soon as people are born  
They`re doomed to feel fear for life  
To make weapons,guns and knife  
To cruel tortures and war.*

Asar an'anaviy turkiy she'riyatiga xos bo'lgan aniq vazn va ritmga ega. Aniqroq qilib aytganda, poema 8 bo'ginlik barmoq vaznida yozilgan. Bu o'quvchi uchun bir xil ohangda o'qishni osonlashtiradi va undagi dramatik voqealarni ifodalashga yordam beradi. Ritm va ohang xarakterga jon baxsh etadi, harakat va hayajonni kuchaytiradi.

Umuman olganda, buyuk shoirning badiiy tildagi obrazlilik va ifodalilik qobiliyati poemaga samimiylik va realistik ohang bag'ishlagan va asar ta'sirchanligini oshirgan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Виноградов В.С: Общие и лексические вопросы, М; 2004
2. Фёдоров А.В: Введение в теорию перевода,М;1983
3. Шарипов Дж. Ш: Некоторые проблемы поэтического перевода,М;1989
4. Чуковский К.И: Искусство перевода, М-Л, -1936
5. И.Юсупов: Таңламалы шығармалары I том, Нөкис “Билим”-2018
6. И.Юсупов: Таңламалы шығармалары II том, Нөкис “Билим”-2018
7. И.Юсупов: Таңламалы шығармалары III том, Нөкис “Билим”-2018
8. И.Юсупов: Тумарис хэм басқа поэмалар,Нөкис
9. А.Jaksibaev:Korkem awdarma maseleleri.Nokis, Qaraqalpakstan -1967